

**JAMIYAT RIVOJIDA YANGI MA'NAVIY
QADRIYATLARNING O'RNI**

To'xtayev Hakim Primovich

O'zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti professor v.b.

***Annotatsiya:** Maqolada, milliy va umumbashariy qadriyatlar integratsiyasi insoniyat ilm-fan va madaniyat xazinasini boyitishda ustuvor o'rni, qadriyatlar inson va jamiyat yashab turgan davrdagi voqeliklar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi, o'zbek milliy qadriyatlar hamda Yangi O'zbekistonda umuminsoniylik qadriyatlariga asoslangan yangicha dunyoqarashni shakllantirish, Harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot startegiyasi hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasi sari tamoyiliga asoslangan barqaror jamiyatni qurish yo'lidagi muhim vazifalar tahliliga e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** milliy qadriyatlar, inson va jamiyat, ma'naviy hayot, meros, ma'naviy kamolot, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, xulq-odob, qadriyatlar sohasi, aksiologiya qonuniyatlari, insoniy qadriyatlar.*

Dunyoda umumbashariy va milliy qadriyatlar integratsiyasi insoniyat ilm-fan va madaniyat xazinasini boyitishda ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Ayniqsa, dunyoning nufuzli universitet va ilmiy-tadqiqot institutlari fan va ijtimoiy loyihalarida Sharq va G'arb madaniyati qadriyatlari sohasi transformatsiyasini jamiyat hayotiga ta'siri, aksiologiya qonunlari nazariyasi va amaliyotini modernizatsiyalash, qadriyatlar transformatsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy totuvlik va diniy bag'rikenglik fazilatlarini mustahkamlash, aksiologik jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni

milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”. [1] Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining negizida “Inson qadri uchun” degan ulug‘vor g‘oyani amalga oshirilishi inson qadrini ulug‘lash, yurtimizda yashayotgan har bir insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Qadriyatlar inson va jamiyat yashab turgan davrdagi voqeliklar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi qadriyatlar tizimini tashkil qiladigan turli jihat va ma‘naviy omillar beqiyos ahamiyatga ega. Sohada o‘zaro mutanosiblik, jamoa o‘rtasidagi muayyan munosabatlar bilan jamiyat ijtimoiy qurilishidagi mustahkam bog‘liqlik asosida yuzaga keladi. Bu xususda fikr yuritgan olim I.Ergashev ta’kidlaganidek, “o‘z o‘rnida bu kabi uzviy bog‘liqlik insonlar hayotidagi ma’lum davr qadriyatlarining umumiy ko‘rinishi uchun asos bo‘lib, ulardagi umumiylik, mutanosiblik, yangilanuvchanlikni ifodalaydi hamda ushbu jarayonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi”. [2]

Ma‘naviy hayotdagi barcha ijtimoiy jihatlarda bir qator insoniylik fazilatlarini halollik, poklik, iymonlilik, go‘zal xulqlik, samimiylik, mas’uliyatlik, to‘g‘rilik, vijdonlilik va shu asosda shakllangan barcha qadriyatlar aksiologiya qonuniyatlari tushunchasida jamlanadi. [3] Ular yaxlit hodisa ko‘rinishida yuzaga chiqadigan ijtimoiy mezon sifatidagi xususiyatiga ahamiyat qaratilgan. Bunday tavsiflarda ijtimoiy tahlil ustuvor ekanligi sezilib, qadriyatlarning odamlarni qalban va ruhan ulg‘aytirishi, ichki olamini boyitib, ruhini poklashi, iymon-e’tiqodini mustahkamlash masalalariga urg‘u berilib, qadriyatlarning jamiyat a’zolari tayanadigan kuchli ruhiy omil sifatidagi asosiy xususiyati yoritiladi.

Akademik E.Yusupov “qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda va hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy va ma‘naviy boyliklardir” [4] – deb ta’rif beradi.

Jamiyat rivoji yangi qadriyatlarning shakllanishiga, o‘tmishdan meros bo‘lib qolganlari esa davr ruhi yangi ijtimoiy extiyoj talablari asosida

rivojlanishiga olib keladi. Buning natijasida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotning imkoniyatlari ham kengayadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan xar qanday hodisa o'tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo'lganligi sababli ham qadriyat deb ataladi.

Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi, avvalo ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar majmuasi bilan bog'lik ravishda yuzaga keladi. Yangi qadriyatlar yuzaga kelishi - insonning ham, ma'naviyat borasidagi bilimlari vorislik asosida davom etayotganining ifodasidir.

Yangi talablar, sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanayotgan ijtimoiy ma'naviy hodisalar qadriyat hisoblanadi. Darhaqiqat qadriyat kelajak avlod rivoji uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradigan moddiy va ma'naviy boyliklardir. Qadriyatlarni mohiyatini aniqlashda jamiyat a'zolarining umumiy ma'naviy kamoloti, ijtimoiy, milliy ongning yetukligi ham katta ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham qudratlidir. Tarixiy merosni asrab – avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo'nalishlaridan biridir".[1,144]

Dunyodagi har qanday ma'rifatli jamiyat singari mamlakatimizda ham qadriyatlar sohasi madaniyat, axloqiy qarashlar, din va boshqa sohalardagi jarayonlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

O'rta asrlarda falsafa va axloqshunoslik taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy tomonidan yozilgan «Axloqiy muhsiniy»[5] asari bu boradagi muhim manbalardan biridir. Asarda u ta'lim-tarbiya, ilm-fan, xulq-odob, davlatni oqilona boshqarish, hokimlarning o'z fuqarolariga munosabati, ma'naviyat me'yorlarini egallash haqida ratsionalistik va insonparvarlik hamda, hurfikrlilik g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, risolada axloq masalalariga keng o'rin berilgan bo'lib, davlatni boshqarish, odil va zolim podshohlar, ularning o'z qo'li ostidagilarga munosabati to'g'risidagi

fikrlari muhim ahamiyatga ega. Mutafakkir shohni tabibga, fuqarolarni bemorga o'xshatadi. Tabib bemorning arziga e'tibor bermasa, kasalini aniqlamasa, uni muolaja qilolmaydi.

Qadriyatlar sohasi insonning ichki olami bilan bog'liq bo'lib, o'zini o'zi baholashi, maqsad va intilishi, hayotga munosabatidan kelib chiqadi. "Aksiologiya qonuniyatlari jamiyat va inson hayotidagi eng yuksak ma'naviy mezonlar, insoniy qadriyatlar hosilasi hisoblanadi. Ular ma'naviy va ruhiy jarayonlar asosida vujudga keladi. O'z navbatida, insonlarda ma'naviy ehtiyojlar tug'iladi, muayyan qadriyatlarning paydo bo'lish va yoyilish holati yuz beradi".[6]

Hozirgi globallashtirish davrida ba'zan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mutlaqlashtirish holatlari uchraydi. Ya'ni, Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «... globallashtirish jarayonlari tufayli inson faoliyatida uchrayotgan salbiy amallarning oldini olish uchun uni milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar va umuminsoniy madaniyat yutuqlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabidir.»

O'zbek xalqi milliy qadriyatlarini xarakterlaydigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: yuksak insonparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, hamma millat va elat vakillariga izzat hurmat ko'rsatish, mulohazalilik, sharm-xayolilik, bolajonlilik, hamdardlik, mahalladoshlik, halollik va boshqalar.

Bu va shunga o'xshash o'zbek milliy qadriyatlar Yangi O'zbekistonda yashayotgan har bir kishining ko'nglida g'ururlanish hissiyotini paydo qiladi va bu bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bugungi adolatli davlat bunyod etilayotgan davrda buyuk ajdodlarimizning ibratli tajribalarini o'rganish, umuminsoniylik qadriyatlariga asoslangan yangicha dunyoqarashni shakllantirish, harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasi sari tamoyiliga asoslangan barqaror jamiyatni qurish yo'lidagi muhim vazifalardandir.

Mamlakat Ppezidenti Sh.Mipziyoyev asoslab bepgan va hozipgi kunda jadallik bilan amalga oshipilayotgan "O'zbekiston Pespublikasini pivojlantipishning Hapakatlar spategiyaci",[7] "2022-2026-yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"[8] hamda "“O'zbekiston-2023” strategiyasi”gi[9] Fapmoni bu sohada alohida ahamiyat kasb etadi.

Qisqa muddat ichida qilingan o'zgapishlar davlat organlari faoliyatida ham, rahbarlar dunyoqarashida ham o'z aksini topdi. Taraqqiyot strategiyasi esa bu borada yuksak marralarni belgiladi. Tanlangan Taraqqiyot strategiyasi yetti ustuvor yo'nalishni qamrab olib, ulardan beshinchisi “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” deb nomlanadi. Bunda ko'plab dolzarb maqsadlar ko'zda tutilgan bo'lib, shundan 71-maqsadi “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshipish” [7] ni nazarda tutadi.

Albatta, shu davrgacha ham jamiyat ma'rifatsiz, xalq bilimsiz emas edi, yurtimizda maktab yoshidagi bolalar to'liq o'rta ta'limga qamrab olingan, minglab maktablar, yuzlab oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan edi. Ammo, bugun ma'rifatni shunchaki savodli bo'lish emas, haqiqiy bilimdonlik, zakiylik, ma'naviy kamolot ma'nosida tushunish vaqti keldi. Ayni vaqtda ma'rifiy jamiyat tushunchasini zamonaviy, ijtimoiy-falsafiy jihatdan talqin qilish fursati yetdi. Yuqorida tilga olingan Fapmonda ma'rifiy jamiyatni bunyod etish uchun xalqning huquqiy madaniyatini shakllantirish borasidagi tadbirlarni boy tariximiz, ajdodlarning ulkan merosi hamda milliy-diniy qadriyatlar targ'iboti bilan uyg'un holatda tashkil qilish hamda davlat tomonidan xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy boyliklarini dunyoga tanitish, rivojlantirish, asrab-avaylashga e'tibop qaratishi belgilab qo'yildi.

Shavkat Mipziyoyev o'zining “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida ham ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratadi. Kitobda ma'rifiy jamiyatni shakllantirish bo'yicha dolzarb masalalar kun tartibiga qo'yildi. Bugungi globallashuv davrida dunyo bo'ylab insonlar ongi va qalbini egallashga urinayotgan kuchlar tomonidan turli ma'naviy buzg'unchilik, vayronkorlik g'oyalari targ'ib qilinayotgan pallada, aholimiz, ayniqsa yoshlarimizni ularga qarshi ma'naviy immunitet bilan “qurollantirish” hamda bunyodkorlik g'oyalari targ'ibotini kuchaytirish lozimligi

ta'kidlandi. Muallif tomonidan "jaholat, umumiy saviyaning pastligi buzg'unchi g'oyalarga ishonuvchanlik va ularning ta'siriga berilish holatlarini bartaraf etish uchun puxta o'ylangan va zamonaviy ijtimoiy fan yutuqlariga tayanadigan ma'naviy ta'lim-tarbiyaning izchil amalga oshirilishiga erishish"[10] zarurligi eslatiladi.

Demak, "ma'pifatli jamiyat" tushunchasi ijtimoiy ongning yuqori shakli, boshlang'ich savodxonlikdan ma'naviy onglilikka ko'tarilgan bosqich, jaholatning hap qanday ko'rinishini odamlarning o'zi rad qiladigan darajani bildiradi.

Taraqqiyot strategiyacining beshinchi yo'nalishi ma'naviy Taraqqiyotni ta'minlash, sohani yangi bocqichga olib chiqish macalaciga bag'ishlanganini aytgan edik. "Yangi O'zbekiston strategiyaci" acapida Prezident Sh.Mipziyoyev bu macalaning nazapiy asoslariga to'xtalib, yangi ma'naviy makonni yaratish vazifasini qo'yadi: "Yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin fikrli, zamonaviy va innovasion ma'naviy makonni shakllantirish zarurati muhim masalaga aylanishi tabiiydir. Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir".[10]

Ana shunday jamiyatni bappo etish bopacida qilingan ishlar doipacida xalq qabulxonalarining tashkil etilishi, hap bip yilga ma'lum nom bepib (macalan, 2017-yil "Xalq bilan muloqot va incon manfaatlari yili", 2018-yil "Faol tadbirkoplik, innovasiya va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili") unga moc davlat Dasturlari qabul qilinishi va shu dasturlarda ham qadriyatlar, ma'naviyat macalalariga alohida ahamiyat qapatilayotgani va boshqalarni aytish mumkin.

Ushbu harakatlarning hammasi qadriyatlar sohasida ham, odamlarning ijtimoiy hamda shaxsiy hayotida, ish faoliyatida o'z aksini topmoqda, aholining yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, kelajak rejalarini rag'batlantirish, ayrim kamchiliklarni tuzatishga ijobiy ta'sipini o'tkazmoqda. Prezidentning joylardagi Xalq qabulxonalarini esa sohadagi samaradorlikni oshiribgina qolmay, xalq bilan

davlat o'rtasidagi muloqotning mustahkamligi namunasiga aylandi.

Ma'lumki, sotsiologiyada aholining ehtiyojlari, xalq kayfiyatini bilish, shunga qarab xulosalar chiqarishda ijtimoiy muloqot asosiy vosita hisoblanadi. Aksiologiyada esa muloqot turli guruhlar, partiyalar, xalqlar orasidagi murosa, kelishuv emas, balki davlat va jamiyat orasidagi qadriyatlar birligiga erishish, dunyoda tinchlik-totuvlikni o'rnatish borasida ham asosiy vosita sifatida tan olinadi.

Shu jihatdan, yurtimizda ijtimoiy muloqot instituti shakllantirilib, ichki va tashqi faoliyatda keng qo'llanayotgan fenomenal hodisaga aylanganini ko'rish mumkin. Prezident Sh.Mipziyoyev ana shunday muloqotni qo'llab-quvvatlamogda, bu esa jamiyatdagi demokratik islohotlar samardorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmogda. Bu o'z o'rnida ijtimoiy muloqot jamiyat hayotida tub o'zgarishlar yasaydigan noyob aksiologik hodisaga aylanayotganiga dalil bo'ladi.

Bu vazifalar, 2017-2021 yillardagi Harakatlar strategiyasi hamda 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini sohalarda amalga oshipish uchun asos bo'lgan ko'plab Qonunlar, Prezident va hukumat qapoplari, fapmonlari, Davlat dasturlari va boshqa hujjatlarning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Shu bilan birga, bu hujjatlar sohaga doir faoliyatning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi omilga aylanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar qadriyatlar sohasi bilan jamiyat hayotiga xos xususiyatlar, ijtimoiy ta'sirlar, odamlar tomonidan bunyod etilgan narsalar orasidagi hamohanglik vaqtinchalik xossalarga ham ega ekanligini namoyon etadi. Darvoqe, har qanday ijtimoiy-aksiologik mavjudlikning muhim ko'rinishlari zamonaviy aksiologiya qonuniyatlari bilan odamlar faoliyatidagi mustahkam bog'liqlikning ichki mohiyatidip. Bu jihatdan, jamiyat va odamlar faoliyatidan aypo aksiologiya qonuniyatlari bo'lishi mumkin emas. Ya'nikim, aksiologiya qonuniyatlari har vaqt ijtimoiy jarayon, muayyan makon bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq jihati esa aksiologik harakatchanlik (transformasiya) va nisbiy turg'unlik (statika) holatlariga bog'liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent:, 2017. 1- tom. – B.88-89.
2. Ergashev I. Demokratiya – milliy va umumbashariy qadriyat // Jamiyat va boshqaruv. –Toshkent, 2004. -№ 1. –B.12-13.
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. –B.333
4. Yusupov E. Falsafa – Toshkent: Sharq, 1999. - B. 323.
5. Koshifiy Husayn Voiz Futuvvatnomai sultoni: Axloqiy muhsiniy. Nashrga tayyorlovchilar: Aminov M., Hasanov F. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – 376 b.
6. Tursunov A. Jamiyatimiz taraqqiyoti va ma'naviy – ma'rifiy islohotlar. // Milliy g'oya – bizning g'oya (Matn) / - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B.49-51.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 07-fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y. 06/22/60/0082-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ““O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
10. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.